

Nihollarning “rahmat”i

Hikoya

Anvar bu yil birinchi sinfni bitirdi. Bahorda sinfdoshlari bilan maktab hovlisiga daraxt va gul ko'chatlari ekishdi. O'quvyili oxirigacha nihollarancha jonlandi.

Ta'tildan qaytganingizda bu gullar ochilgan bo'ladi. Nihollar baquvvat ekan. Anvarjon, nomimizdan bobonga rahmat, deb qo'y,-dedi Muqaddam opa.Ta'tilga chiqqaniga bir oy bo'lganda to'satdan Anvar:

- Maktabimni sog'indim, borib kelaylik, -dedi bobosiga nonushta payti.

- Iye polvon, hozir maktabda hech kim yo'q. Bolalar oromgohda, - dedi Ilhom bobo gazetani xontaxtaga qo'yarkan.

- Men ko'chatlarimni sog'indim. Olchamning bo'yi mendan mana buncha baland edi, - qo'llarini boshi uzra ko'tardi Anvar.

- Balki gullar ochilgandir, boraqolaylik. Yo'lda do'kondan sizga gazeta, menga muzqaymoq olamiz.

Ho-o-o, yoqmay ketsin, muzqaymoq tomog'ingni og'ritadi, o'rniga kitob olinglar, - suhbatga qo'shildi Xolida buvi.

Bo'pti, taklifing buvingga ham yoqibdi. Bor, boshingga biron nima kiy, kun isib ketdi.

Ur-re-e, - Anvar bir zumda bosh kiyimini kiyibchiqdi.

- Hali bolalar hujjatlarini qabul qilishmayapti, direktor majlisga ketgan, - dedi qorovul amaki Ilhom bobo bilan so'rasharkan.

- Amaki, men allaqachon ikkinchi sinfga o'tganman, gapga qo'shildi Anvar.

- Bobomga bog'imizni ko'rsatmoqchiman.

- Shunaqami? Katta bolaman, degin. Uch kundan buyon ariqda suv yo'q, bugun keldi. Kechqurun bog'ga suv ochmoqchidedim, - shoshib qoldi qorovul amaki.

- Anvar bobosining qo'lidan ushlab, yer maydoni tomon yetakladi. Bordi-yu, ko'chatlarni ko'rib, yig'lamsiradi. Issiqdanmi, suvsizlikdanmi, so'lib qolay degandi.

- Nega xafasan? Kel, ularni yovvoyi o'tlardan tozalab, sug'oramiz.

- Bobo bilan nabira bog'da ancha ishlashdi. Anvar gullarni o'rab olgan pechaklarni yuldi. Ilhom bobo olmaning singan shoxini kesib, tagini yumshatdi. Birozdan keyin suv egatlar bo'ylab taraldi. Shundan so'ng bobo va nabira maktab kutubxonasiga kirib, ertak kitob olishdi.

Ular bog'ga qaytganida ko'chatlar ancha yashnab qolgandi. Olcha shoxlari shamoda tebrandi.

-Qara, ular bizga rahmat aytyapti,-dedi bobosi.

Vasila Po'latova
G'uncha jurnali. 3-son.